

NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONAVA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT


2020-yil 1-fevral holatiga
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Navoiy viloyatida qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnda, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.




Yuridik shaxs:

Faoliyat yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladi.


Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (yanvar oyida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar oyida, umumiy sonidagi ulushi)



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati bilan shug`ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi (1-fevral holatiga ko'ra)



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)




- Ishlab chiqariladigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 2 896 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 155,5 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 159,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,5 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 128,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 118,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,5 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 114,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.


Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 1 452 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 134,2 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, binolar va inshoatlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 122,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 51,8 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 88,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 5,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 166,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 42,4 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 5 265 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 228,7 % ga oshdi. Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 251,0 % ga (jami savdodagi ulushi 71,6 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 179,2 % ga (jami savdodagi ulushi 20,7 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosini va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 210,4 % ga (jami savdodagi ulushi 7,7 %) o'sishidir.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonava tashkilotlar soni (2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

246

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

5

**Yashash uchun joy bilan ta'minlagan
holda parvarishlash**

14

**Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan
holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish**


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

**81**yashash bo'yicha
xizmatlar**1 123**oziq ovqatlar va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar

2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 204 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 136,5 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bo'lib, oziq ovqatlar va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 132,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,3 %), yashash bo'yicha xizmatlar – 231,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,7 %) o'sishidir.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 195 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,4 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino-videofilmlar, television dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 75,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,1 %);

axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan – 116,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 14,4 %);


noshirlik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 84,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 11,3 %);

dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 200,0 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,0 %);

kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan – 139,5 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 30,8 %);

aloqa xizmatlarning – 128,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 39,4 %) o'sishidir.

Oilaviy korxonalar soni (1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-fevral holatiga ko'ra 3 101 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 341 taga yoki 4,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 047 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 290 taga yoki 4,0 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatmayotgan oilaviy korxonalar soni 54 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 51 taga yoki 18,0 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning soni, (1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-fevral holatiga ko'ra 7 698 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 694 taga yoki 153,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 7 415 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 2 435 taga yoki 148,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 283 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 259 taga yoki 11,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni (2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra 220 tani tashkil etib, ulardan 215 tasi yoki 97,7 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 95 taga yoki 79,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil fevral oyida viloyati-mizda 7 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyida, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

**Ro'yxatdan o'tgan
15 887**

- kichik korxonalar 643
- mikrofirmalar 15 244


**Faoliyat
ko'rsatayotgan
15 223**

- kichik korxonalar 633
- mikrofirmalar 14 590

**Faoliyat
ko'rsatmayotgan
664**

- kichik korxonalar 10
- mikrofirmalar 654

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Navoiy viloyati MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Rossiya Federatsiyasi	41	27	14
Qozog'iston Respublikasi	7	4	3
Ozarbayjon Respublikasi	2	2	-
Qirg'iz Respublikasi	1	1	-
Tojikiston Respublikasi	5	3	2
Turkmaniston Respublikasi	3	3	-
Ukraina Respublikasi	1	1	-
Belarus Respublikasi	-	-	-
Armaniston Respublikasi	-	-	-
Moldova Respublikasi	-	-	-

O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda Navoiy viloyati hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossia Federatsiyasi 19,5 %, Qozog'iston Respublikasi 3,3 %, Ozarbayjon Respublikasi 0,9 %, Turkmaniston Respublikasi 1,4 %, Tojikiston Respublikalasi 2,3 % ga to'g'ri kelmoqda.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda

(2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Shahar va tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonava tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (4 135 ta), Karmana (2 807 ta), Qiziltepa (2 175 ta), Xatirchi (2 142 ta) va Nurota (1 358 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Uchquduq (762 ta), Konimex (639 ta) hamda Tomdi (310 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Shahar va tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Navoiy viloyati	215	136	79
Navoiy sh.	75	54	21
Zarafshon sh.	15	10	5
tumanlar:			
Konimex	7	5	2
Qiziltepa	13	8	5
Navbahor	7	5	2
Karmana	52	34	18
Nurota	20	11	9
Tomdi	7	6	1
Uchquduq	9	1	8
Xatirchi	10	2	8

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahrida 75 ta (jamidagi ulushi 34,9 %), Karmana 52 ta (24,2 %), Nurota 20 tani (9,3 %) tumanlarida. Nisbatan kamlari Konimex, Navbahor hamda Tomdi tumanlarida 7 tani (3,3%) tashkil etadi.


Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning shahar va tumanlar bo'yicha soni, birlikda (2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri jamidagi ulushi (25,2 %), Karmana (16,0 %), Qiziltepa (12,2 %), Xatirchi (12,0 %), Navbahor (9,5 %), Nurota (7,6%) tumanlari hamda Zarafshon shahri (7,9 %) hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamroq o'sishi Uchquduq (4,3 %), Konimex (3,6 %), Tomdi (1,7 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020-yil yanvar oyida, birlikda)


2020-yil yanvar oyida ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri jamidagi ulushi (28,3 %), Xatirchi (18,4 %), Karmana (16,9 %), Uchquduq (7,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamroq o'sishi Nurota (4,8 %), Qiziltepa (4,1 %), Tomdi (3,6 %), Konimex (2,9 %) hissalariga to'g'ri keladi.



Shahar va tumanlar kesimida har 1 000 oilaga to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari soni¹ (2020-yil yanvar oyida, birlikda)




Shahar va tumanlar kesimida har 1 000 aholiga to'g'ri keladigan kichik korxona va mikrofirmalar soni² (2020-yil 1-fevral holatiga, birlikda)




^{1) 2019-yil 1-yanvar holatiga tumanlar (shaharlар) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari Faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.}

^{2) Doimiy aholi soni 2020-yil 1-yanvar holatiga shakllantirilgan}

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini shahar va tumanlar kesimida soni, (2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning shahar va tumanlar bo'yicha soni (2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning asosiy qismi Navoiy shahri (2 219 ta), Qiziltepa (1 198 ta), Karmana (1 203 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Zarafshon shahar (416 ta), Navbahor (604 ta), Nurota (465 ta), Uchquduq (495 ta), Tomdi (112 ta) Xatirchi (514 ta) va Konimex (189 ta) tumanlarida tashkil etgan.

Shahar va tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %)




Shahar va tumanlar kesimida oilalar va faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda

	Oilalar soni ^{*)}	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.02.2019-yil	01.02.2020-yil
Navoiy viloyati	261 472	9 445	15 294
Navoiy sh.	44 361	2 896	3 625
Zarafshon sh.	22 157	611	1 273
tumanlar:			
Konimex	7 790	253	515
Qiziltepa	38 834	1 033	1 937
Navbahor	27 846	824	1 490
Karmana	37 996	1 755	2 560
Nurota	22 579	776	1 174
Tomdi	2 395	124	236
Uchquduq	10 918	329	650
Xatirchi	46 596	844	1 834

**) 2019 yil 1 yanvar holatiga tumanlar (shaharlар) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.*

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning shahar va tumanlar bo'yicha soni

(2020-yil yanvar oyida, birlikda)





2020-yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning asosiy qismi Navoiy sh. (26 ta), Xatirchi (43 ta), Karmana (25 ta), va Navbahor (13) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Aksincha, Tomdi (2 ta), Nurota (3 ta), Konimex (4 ta) tumanlari va Zarafshon shahrida (2 ta) korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettigan.

Shahar va tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar oyida, birlikda)

O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestridera mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sun qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Navoiy viloyati statistika boshqarmasining www.navstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:71 230-84-56**